



Oltinoy MA'MIROVA,

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi mustaqil tadqiqotchisi

O'zJOKU s.f.d, Professor M.Qirgizboyev taqrizi asosida

## NOMARKAZLASHTIRISHNING NAZARIY JIHATLARI VA ULARNING TALQINLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada jahon tarixida nomarkazlashtirish g'oyalaring shaklanishi tahlil qilinadi, nomarkazlashtirish shakllarini tasniflashtirishdagi asosiy yondashuvlar muhokama qilinadi, shuningdek, nomarkazlashtirish konsepsiyasiga binoan tashkil etish prinsipi va boshqaruvning amal qilishi, boshqaruvning usuli va yana bir jarayon sifatida namoyon bo'lishi kabi jihatlari, nomarkazlashtirishning ma'muriy, siyosiy va fiskal shakllari o'chib beriladi.

**Kalit so'zlar:** nomarkazlashtirish, ma'muriy nomarkazlashtirish, siyosiy nomarkazlashtirish, fiskal nomarkazlashtirish, dekonsentratsiya, vakolatlarni uzatish, devolyusiya.

## ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ДЕЦЕНТРАЛИЗАЦИИ И ИХ ИНТЕРПРЕТАЦИИ

Аннотация

В данной статье анализируется формирование идей децентрализации в мировой истории, рассматриваются основные подходы к классификации форм децентрализации, также согласно концепции децентрализации раскрываются такие аспекты, как принцип организации и функционирования управления, метод управления и его проявление как другого процесса, административные, политические и фискальные формы децентрализации.

**Ключевые слова:** децентрализация, административная децентрализация, политическая децентрализация, финансовая децентрализация, деконцентрация, передача полномочий, деволюция.

## THEORETICAL ASPECTS OF DECENTRALIZATION AND THEIR INTERPRETATIONS

Annotation

This article analyzes the formation of ideas of decentralization in world history, examines the main approaches to the classification of forms of decentralization, and also, according to the concept of decentralization, reveals such aspects as the principle of organization and functioning of management, the method of management and its manifestation as another process, administrative, political and fiscal forms of decentralization.

**Key words:** decentralization, administrative decentralization, political decentralization, financial decentralization, deconcentration, transfer of powers, devolution.

**Kirish.** Jahon tarixida nomarkazlashtirish g'oyalari dastlab XVI asr oxirlarida shakllangan edi. Bu davrda davlat boshqaruvini yaxshilash sohasida tadqiqotlar olib borish kuchaygan bir davr edi. Ko'pchilik olimlar nomarkazlashtirishga oid dastlabki fikrlarni fransuz huquqshunos va siyosiy faylasufi Jan Boden (1630-1596 yy.) va Iogann Altuzius (1563-1638 yy.) degan fikrni keltiradi. Jumladan, Jan Boden butun bir Yevropada suveren yaxlit (bir butun) davlat nazariyasini ilgari suradi. Bu suveren yaxlit davlatlar ideal davlat tashkiloti sifatida Yevropa XIX asrning oxirigacha hukm surdi. Masalan, XVII va XVIII asrlarda Prussiya davlat siyosatida Fransiyadagidek suveren yaxlit davlat qurish strategiyasiga amal qilindi [4].

XVII asrning boshida Jan Bodenga nisbatan muholifosi nazariyalarni ilgari surgan olim – bu nemis-fransuz huquqshunos Iogann Altuzius edi. U "Politica Methodice Digesta, Atque Exemplis Sacris et Profanis Illustrata" asarida yaxlit davlat nazariyasiga qarama-qarshi g'oyalari – federal davlat instituti nazarpiyasini ilgari surdi. Uning nazariyasiga binoan, suveren monarx emas, balki xalq bo'lishi lozim. Mutafakkir mahalliy mintaqaviy siyosiy darajadagi hokimiyat organlarga vakolatlar va o'zini o'zi boshqarish huquqlarini berishni talab qildi. Iogann Altuzius g'oyalarii XX asr boshlarigacha unitilib ketdi. Bu g'oyalari faqat Yevropada ahamiyat kasb etdi.

Umuman olganda, XX asrgacha markazlashgan davlat ideal davlat sifatida talqin etildi. XX asr boshlarida nasist va sosialistik davlatlarga qarama-qarshi o'laroq subsidiarlik g'oyalari paydo bo'ldi. Bu g'oyaning manbai - 1891 yilda Papa Lev XIII tomonidan taklif etilib, Rim katolik cherkovining ijtimoiy ta'lilotiga aylanishi hodisisi hisoblanadi. Keyinchalik Piy XI sudsidiarlikni diktatura va davlatni iqtisodiyotga aralashmaslik yo'llari o'rtasidagi uchinchi yo'l sifatidagi afzalligini ilgari surdi. Bu g'oya asosan 1931 yilda Ulug' ro'zadorlikka oid Papa ensiklikida e'lon qilingan edi [1].

### Tadqiqot metodologiyasi va adabiyotlar tahlili.

Maqolani yozishda jahon tarixida nomarkazlashtirish g'oyalaring shaklanishi, nomarkazlashtirish shakllarini tasniflashtirishdagi asosiy yondashuvlar tahlil qilindi, ular bir tizimga solinib umumlashtirildi. Mazkur mavzuga oid taniqli ekspertlarning tahlillari va tavsilari o'rganildi. Maqolada tadqiqot olib borishning umumilmiy metodlari - tizimli-funksional, qiyosiy, mantiqiy, statistik tahlillardan foydalanildi, shuningdek manbalar va ma'lumotlarni tizimlashtirish va qiyoslash, umumlashtirish, tuzilmaviylik hamda dinamik tahlil metodlariga ham murojaat qilindi.

**Tadqiqot natijalari.** XX asrning 40-yillari ikkinchi yarmida davlatni nomarkazlashgan tarzda tashkil etish, subsidiarlik va mintaqaviylik prinsipi o'zini afzalligini isbotladi. Oldinlari namunaviy model bo'lgan fransuz markazlashgan davlatchiliginin Fransiya davlatining o'z voz kechdi. Siyosiy va boshqaruv hokimiyatini intaqaviylashtirish va nomarkazlashtirish yevropa siyosatining yetakchi prinsiplaridan biriga aylandi. Bu davrda Yevropada mintaqaviylashtirishning beshta shaklli paydo bo'ldi:

1) federal tuzilmalar vositasidagi mintaqaviylashtirish (Avstriya, Belgiya, Bosniya, Gersegovina, Rossiya, Germaniya, Shveysariya);

2) mintaqaviy avtonomiya (Ispaniya, Buyuk Britaniya, Shimoliy Irlandiya);

3) mintaqaviy nomarkazlashgan (Fransiya, Vengriya, Niderlandiya, Novegiya, Polsha, Slovakiya, Chexiya, Shvesiya);

4) mavjud mahalliy hokimiyat organlari vositasidagi kvazimintaqaviy (Finlyandiya, Fransiya);

5) ma'muriy mintaqalashtirilgan (Albaniya, Armaniston, Belarus, Bolgariya, Yunoniston, Gruziya, Daniya, Litva, Portugaliya, Ruminiya, Ukraina, Turkiya va boshq) [9; 31].

Nomarkashlashtirish konsepsiyasiga binoan uning bir necha jihatlarda: tashkil etish prinsipi va boshqaruvning amal

qilishi, boshqaruvning usuli va yana bir jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Nomarkazlashtirish tashkil etish prinsipi va boshqaruvning amal qilishi sifatida namoyon bo'lganida huquqiy doirada o'z imperativi (yoki imkoniyatlari) va mantig'iga ega bo'ladi:

1)siyosiy, ma'muriy, fiskal va boshqa kompetensiylarning taqsimlanishi va o'zaro chegarlanishi va u bilan bog'liq mas'ulliklar – oliv (markaziy, federal, milliy) davlat hokimiyati darajasi, mintaqaviy (submilliy) davlat hokimiyati darajasi va mahalliy davlat hokimiyati organlari darajasi bo'ylab yuqorida quyiga qarab kompetensiylar uzatiladi (vertikal nomarkazlashtirish prinsipi asosida), shuningdek, unga qo'shimcha ravishda ular zaruriy resurslar bilan ta'minlanadi;

2)siyosiy, ma'muriy, fiskal va boshqa kompetensiylarning taqsimlanishi va o'zaro chegarlanishi va u bilan bog'liq bo'lgan o'zar mas'ulliklar "gorizontal bo'yicha" – turli hokimiyat organlari o'rtasida gorizontal nomarkazlashtirish prinsipi asosida amalga oshiriladi;

3)alohiba hokimiyat organlari vakolatlari avtonom va avtonomlashishga yaqin davlat organlari, shuningdek davlat-hususiy va xususiy sektor avtonom tashkilotlariga o'tkaziladi.

AQSH olimlari Jon Koen va Stiven Petersen nomarkazlashtirish shakllarini tasniflashtirishda oltita asosiy yondashuvlar alohiba ajratib ko'rsatib, bu shakllarni murakkab holatlarda bir-biriga ta'sir qilishimi ko'rsatib berdi:

tarixiy kelib chiqishga tegishli shakllarni tasniflash (bunda mualliflar to'rtta model – fransuz, ingliz, sovet va an'anaviy kabilarni misol keltirib tahlil etadi va buni kuchsiz, yuzaki va soddaligini qvayd etadi);

nomarkazlashtirishning hududiy va funksional shakllari;

nomarkazlashtirishning muommmali-yo'naltirilgan va qadriyatli-yo'naltirilgan shakllari (vakolatlarni uzatish; funksional nomarkazlashtirish; mahalliy hokimiyat orgaknlari darajasida dekonsentratsiyalash, vazirliklar darajasida dekonsentratsiyalash, avtonom tashkilotlarga vakolatlarni uzatish: filantropiya; marketing shakli);

ijtimoiy-servis fakllari (boshqaruvning mahalliy tizimi, sherkchilik tizimi, integratsiyalashgan boshqaruv tizimlari);

alohiba olingan davlatning o'ziga xos bo'lgan tajribasidan kelib chiqqan shakllar;

maqsadlarga asoslangan shakllar (siyosiy, bozorga oid, ma'muriy va boshq) [13; 16].

Lekin, aksariyat olimlar nomarkazlashtirishning quyidagi shakllarini (jihatlarini) bir-biridan ajratib ko'rsatadi:

- ma'muriy nomarkazlashtirish;
- siyosiy nomarkazlashtirish;
- fiskal nomarkazlashtirish.

Ma'muriy nomarkazlashtirish o'z ichiga hokimiyatning markaziy organlari byurokratik tuzilmalarini dekonsentratsiyalash, vakolatlarni uzatish va davlat hududi doirasida markaziy hokimiyat organlarining kvaziatonom tuzilmalarga nisbatan mass'ulligi kabilarni oladi. Shuningdek, u yana ikki tomonlama shartnomalar tuzish vositasida bir-birlariga o'xhash funksiyalarni amalga oshirayotgan davlat hokimiyati organlariining nomarkazlashuv asosidagi o'zaro hamkorligini ham nazaprda tutadi [11; 7].

Taniqli Italiya olimi Tyuliya Faletti fikricha ma'muriy nomarkazlashtirish avtonomlikka (byurokratik avtonomlikka) va mintaqaviy davlat hokimiyati organlari (submilliy) faoliyati samaradorligiga ijobji yoki salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Albatta bu davlat siyosatini qanday amalga oshirishga bog'liq holda namoyon bo'ladi. Agar ma'muriy nomarkazlashtirish mahalliy va migtaqaviy byurokratiyani faoliyatini samarali kechishiga imkoniyatlar yaratsa, u holda mahalliy va mintaqaviy hokimiyat organlarining tashkiliy salohiyati ko'payadi, bu holat ijobji natijalarga olib keladi. Agar ma'muriy nomarkazlashtirish quiyi organlarga tegishli moliyaviy mablag'larni ajratmasa, u holda mahalliy va mintaqaviy hokimiyat organlarining mustaqillik darajasi kamayadi [14; 37].

Hukumatni nomarkazlashtirish uning uchta jihatida amalga oshiriladi. Bunda nomarkazlashtirish hududiy, ya'ni markaziy shahar hokimiyati boshqa aholi yashash punktlariga berilishi mumkin. Lekin, u albatta funksional nomarkazlashtirishdan iborat bo'lib, oliv ma'murning qaror qabul

qilish vakolati quiyi organlar mansabdor shaxsiga berilishi mumkin [10].

Ma'muriy nomarkazlashtirish uchta asosiy shakllarga bo'linadi: 1) dekonsentratsiya; 2) vakolatlarni uzatish; 3) devolyusiya.

Muayyan bir yondashuv sifatida devolyusiya nomarkazlashtirish tushunchasiga eng yaqin vakolatlarni uzatish mazmunini anglatib, u o'z ichiga huquqiy va siyosiy mustaqil bo'lgan mintaqaviy va mahalliy hokimiyat organlariga moliyashtirish va hokimiyatni boshqarish (qarorlar qabul qilish funksiyalari kabi) vakolatlarini uzatishni nazarda tutadi.

Siyosiy nomarkazlashtirish siyosiy hokimiyat vakolatlarini quiyi mintaqaviy va mahalliy hokimiyat organlari darajasida devolyusiya vositasida boshqaruv tuzilmasida o'zgarishlarni (ba'zi kompetensiylarini uzatish) amalga oshirishga aytildi. Ketlin O'Neylining qayd etishicha, siyosiy nomarkazlashtirish fiskal nomarkazlashtirishsiz holda amalga oshirilganida muholifiy siyoschiy partiyalar uchun boshqaruvning submilliy darajasida imkoniyatlar yaratadi, lekin moliyaviy resurlardan foydalanishga kafolatlar berilmaydi [15; 17].

Fiskal nomarkazlashtirish hokimiyat boshqaruvining barcha darajalarida, dasstavval mintaqaviy va mahalliy hokimiyat boshqaruv organlar daromadlarini ko'paytirish yoki ularning moliyaviy vakolatlarini kuchaytirish, shuningdek fiskal o'zaro ta'sirlarning mexanizmlari, algoritmlari, strategiyalari, siyosiy va boshqaruv sohalari jamlanmasini anglatadi. Ba'zi tadqiqotchilar yana iqtisodiy nomarkazlashtirish tushunchasini ajratib ko'rsatadi. Bunda asosan davlat-xususiy sherikchilikni tuzish va amalga oshirish, davlat korxonalarini xususiylashtirish, bozorni liberallashtirish kabilar tushiniladi [11].

Jahon banki ekspertlarining fikricha, siyosiy nomarkazlashtirish milliy hukumatlarning siyosat ishlab chiqishdagi hokimiyatini kamaytirish demakdir. Bu jarayon hukumatning submilliy darajada qarorlar qabul qilish avtonomligini muayyan qismini quiyi hokimiyat organiga uzatish maqsadida institutlarni isloh qilishdir, yoki fuqarolarga quiyi darajadagi mansabdorlarni (mahalliy va hududiy darajalarda) saylash huquqini berilishidan iboratdir. Buning uchun davlatning qandayligidan kelib chiqib konstitutsiyaga o'zgartishlar kiritiladi yoki islohotlarga oid qonunlar qabul qilinadi (bunda siyosiy partiyalar fraksiyalari takliflari o'rganiladi, qonun chiqaruvchi organ vakolatlari ko'paytiriladi, shuningdek mahalliy siyosiy birlik taskil etiladi [9].

Siyosiy nomarkazlashtirish hukumatning ma'muriy samaradorligini oshirish va fuqarolarga siyosiy erkinliklar berishdan tashqari qator afzalliklarga egadir. Fuqarolarning siyosiy va boshqaruv qarorlarini qabul qilishdagi ishtirokini o'sishi, ularni byudjetni belgilashga ta'siri davlat institutlarini samarali bo'lishiga kuchli ta'sir qiladi [7; 157]. Shuningdek, siyosiy nomarkazlashtirish jamiyatni marginallahish jarayonini to'xtatishga ham kuchli ta'sir qiladi. Shu bilan bir vaqtida, siyosiy nomarkazlashtirish o'zining kamchiliklariga ham egadir. Hukumat vertikal qavatlarga qancha ko'p bo'lib, submilliy hukumatda mansabdorlar qancha ko'paysa korrupsiyani kuchayishi uchun imkoniyatlar ko'payadi [2].

MDH mamlakatlari davlat hokimiyati boshqaruvi tizimini nomarkazlashtirish jarayonlarini tahlil etgan siyosatshunos ekspertlar uni uchta turdag'i modellarga ajratganlar:

1-model – bunda mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari (aksariyat MDH mamlakatlari tuman va shaharlarda davlat boshqaruviga barham munisipal (o'zini o'zi boshqarish boshqaruv tizimi joriy etilgan) rasman nomarkazlashtirish tizim joriy etiladi. Bu holat turli mahalliy va hududiy masalalarni hal etish huquqlariga ega bo'lgan, hududiy jamaoa avtonomiyasiga asoslangan ma'muriy nomarkazlashtirishdan iborat.

2-model – bunda ham markazlashtirish, ham nomarkazlashtirish tamoyillari bir-birlari bilan uyg'unlashib, vakillik va ijroiya organlari davlat va viloyat organlaridan qisman ma'muriy avtonomiya olishga erishadi, lekin davlat nazoratida faoliyat yuritadi. Lekin, davlatning nazorat qilish funksiyasini mavjudligi e'tiborga olnsa, quiyi organlardagi bu holatni o'zini o'zi boshqarishi, deb atash qiyin masalaga aylanadi.

3-model – bu model asosan ma'muriy markazlashtirish tizimini eslatadi. Bunda hokimiyatning mahalliy organlari

“mahalliy darajadagi davlat hokimiyati” funksiyasini vaqtincha bajaruvchi sifatida namoyon bo‘ladi. O‘z navbatida, bu vaziyat oliv hokimiyat organiga bo‘ysunadigan “kompetensiyalarning iyerarxik piramidasi”ni hosil qiladi,

Bu kabi “taribga solish” mahalliy hokimiyat organlari mohiyatigni xiralarshirib, ularning boshqarruv ta’sirini susaytiradi. Bu kabi shart-sharoitlarda markaziy oliv hokimiyat tomonidan tayinlangan viloyatlar ma’muriyati rahbarlarini nomarkazlashgan davlat hokimiyati tizimida faoliyat yuritmoqda, deb tasavvur qilib bo‘lmaydi. Bu kabi o‘zgarishlar naktijasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘ziga tegishli xudud aholisi tomonidan saylangan vakillik jamoalari organlariga nisbatan yuqorida tayinlangan ijroiya hokimiyati tuzilmalari boshqaruv iyerarxiyasida ustunlik qiladi [6].

Nomarkazlashtirish islohotlarining muhim afzalligi – bu uning mahalliy darajalarda qarorlar qabul qilishda fuqarolik jamiyatni tashkilotlari va fuqarolarga ko‘proq huquqlar va imtiyozlar berib, ularni siyosiy hayotda ishtirok etishlariga shart-sharoitlar yaratadi va bujarayonlarda ularga ko‘maklashadi. Mahalliy kengashlar va boshqa nomarkazlashgan organlar fuqarolarga o‘z istaklarini bildirishga va davlat resurslarini taqsimlashga ta’sir etishlari uchun imkoniyatlar yaratadi. Shuningdek, nomarkazlashtirish shaffoflik va yuqori davlat

organlarining hisobdorligini oshirishi natijasida mahalliy hokimiyat organlari fuqarolar uchun ochiqlik va qulaylik yaratadi, fuqarola ehtiyojlariga sezgilik bilan aks-sado beradi.

Nomarkazlashtirish mahalliy hokimiyat organlariga o‘z resurslarini o‘zлari taqsimlash va ishlatshtiga sharoit yaratib berishi va bunda mahalliy shart-sharoitlardan kelib chiqish erkinligi uchun imkoniyatlar yaratishi tufayli ham u iqtisodiy o‘sish va rivojlanishning muhim omili sifatida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, nomarkazlashtirish resurslar taqsimotini samarasini oshiradi: chunki mahalliy hokimiyat organlari mahalliy ehtiyojlar va ustivorliklarni yaxshi biladi. Nomarkazlashtirish davlat xizmatlari ko‘rsatish sifatini oshiradi, uni fuqarolarga qulay va ular ehtiyojlariga mos ravishda bo‘lishini ta’minlab beradi [3].

**Xulosa.** Tahlillardan ko‘rinib turibdiki, davlat hokimiyat boshqaruvi tizimini nomarkazlashtirish islohotlari so‘nggi yarim asr ichida rivojlangan va ba’zi rivojlanayotgan davlatlarda huquqi davlat va fuqarolik jamiyatini takomillashtirishda muhim rol o‘ynadi. Shu bilan birga, davlat boshqaruvi tizimi va davlat siyosati fuqarolar manfaatlari hamda ehtiyojlaridan kelib chiqib shakllana boshлади. Bu islohotlar davlat va jamiyat barqarorligini ta’minlash, fuqarolar ijtimoiy-siyosiy faoliyagini oshirish, ularni siyosiy qarorlar qabul qilishdagi ishtirokining kengayishi kabi o‘zgarishlarning asosiy omili sifatida namoyon bo‘ldi.

#### ADABIYOTLAR

- Березовой О. 16 мая 1931 г. Папа римский пий xi заявил о несовместности католицизма с социализмом.// <https://nod.best/16-maja-1931-g-papa-rimskij-pij-xi-zajavil-o-nesovmestnosti-katolicizma-s-socializmom/?ysc> lid=lqbyysf1eo479341123.
- Вентилятор, К. Саймон; Лин, Чен; Трейсман, Дэниел (февраль 2009 г.). «Политическая децентрализация и коррупция: свидетельства со всего мира». Журнал общественной экономики. 93 (1–2): 14–34. DOI:10.1016 / j.jpubeco.2008.09.001. HDL:10722/192328. ISSN 0047-2727.
- Воздействие децентрализации: механизмы и результаты для стран. 21 февраля 2023 г.// <https://www.cryptopolitan.com/tu/влияние-децентрализации/>.
- Гоптарева, И. Б. Политический анализ концепции федерализма: монография. Оренбург: Южный Урал, 2002. С. 38.
- «Децентрализация: выборка определений», 1999, С.5–8.
- Современные модели децентрализации государственной власти: опыт государств// <https://justicemaker.ru/view-article.php?art=1949&id=26>.
- Лион Эйслинг «Политическая децентрализация и укрепление консенсусной и основанной на широком участии местной демократии в Республике Македония». Демократизация. 22: (2015). 157–178.
- Трофимова И. Н. Децентрализация государственного управления: теоретические модели и страновая специфика // Политика и Общество. 2010. № 3. С.31.
- Политическая децентрализация В архиве 2013-04-09 в Wayback Machine, Проект децентрализации и субнациональной экономики, Всемирный банк интернет сайт, по состоянию на 9 февраля 2013 г.
- Decentralization in Madagascar / A World Bank country study. Washington, D.C.: The International Bank for Reconstruction and Development / The World Bank, 2004. 97 p. P. 8.// <https://openknowledge.worldbank.org/server/api/core/bitstreams/ffcba097-ad71-50dc-a30a-f780f9743bfb/content>
- Cheema G.S., Rondinelli D.A. From Government Decentralization to Decentralized Governance // Decentralizing Governance: Emerging Concepts and Practices. Washington (D.C., USA): Brookings Institution Press, 2007. P. 1 - 20. P. 7.
- Conyers, D. Decentralization: The Latest Fashion in Development Administration» in Public Administrationand Development, Vol. 3,1983. P.82.
- Cohen J.M., Peterson S.B. Administrative Decentralization: Strategies for Developing Countries. Boulder (CO, USA): Kumarian Press, 1999. P. 16 - 20.
- O’Neill K. Decentralizing the State: Elections, Parties, and Local Power in the Andes. Cambridge: Cambridge University Press, 2005. P. 217.